

INVESTITSİYALAR JALB QILINISHINING YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMIGA TA'SIRINI MODELLASHTIRISH

Bozorov Abror Anvar o'g'li

Bank-Moliya akademiyasi Loyiha boshqaruvi (Project management) yo'nalishi

BMA prof., f-m.f.d.

A.Xodjimetov

Annotatsiya. Ushbu maqolada investitsiyalarni jalb qilish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamiga ta'sirini modellashtirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Globallashuv, yashirin iqtisodiyot, strategiya, rivojlanish, pul, iqtisodiyot.

Bugungi globallashgan dunyoda barqaror iqtisodiy o'sishga erishish butun dunyo mamlakatlari uchun asosiy maqsad hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishga bir qancha omillar vositasida erishish mumkin. Bu omillar orasida eng asosiylaridan biri – iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalb etishdir. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli asarida iqtisodiy o'sishga, avvalo, raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishish lozimligini alohida ta'kidlab o'tganlar. Iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, aholi bandligini ta'minlash, turmush darajasini oshirishda mahalliy va xorijiy investitsiyalar muhim o'rin tutadi. Milliy iqtisodiyotga jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalarning miqdorini keskin oshirib borish va ulardan samarali foydalanish iqtisodiyotni yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Shularni e'tiborga olgan holda aytish mumkinki, har bir mamlakatning rivojlanishi va barqaror iqtisodiy o'sishi ko'p jihatdan mamlakatdagi investitsiyaviy jarayonlarga va investitsiyaviy siyosatga bog'liqdir.

Hozirgi kunda yashirin iqtisodiyot oshkora payqab bo'lmaydigan tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash, iste'mol jarayonlari – iqtisodiy munosabatlar bo'lib, uning negizida ayrim kishilar yoki kishilar guruhi manfaatlari yotadi. Yashirin iqtisodiyot bugungi kunda dunyoning barcha mamlakatlarida mavjud. Yashirin iqtisodiyot – ishtirokchilar tomonidan oshkora olib borilmaydigan, davlat va jamiyat tomonidan nazorat qilinmaydigan, soliqlar to'lanmaydigan, rasmiy davlat statistikasida qayd etilmaydigan iqtisodiy jarayonlar, iqtisodiy faoliyat turlaridir. Yashirin iqtisodiyot – murakkab ko'p bosqichli hodisa hisoblanib, uning turli xil shakl va turlari mavjud:

1. Jinoiy iqtisodiy faoliyat. Bu mutlaqo man qilingan, qonun yo'li bilan ta'qib etiladigan ishlar bilan shug'ullanish.

2. G'ayriqonuniy, g'ayriiqtisodiy usullar bilan daromadlarni qayta taqsimlab o'zlashtirib olish.

3. Rasman ruxsat etilgan faoliyat bilan birga qo'shimcha ravishda yashirin ishlab chiqarishga qo'l urish, ochiq ishlaydigan korxonalarda qo'shimcha ravishda hisobga kirmagan mahsulot chiqarib, uni xufiyona sotish va ayirboshlash.

4. Mansabni suiste'mol qilish va korrupsiyaga asoslangan iqtisodiy xatti-harakatlar.

5. Qalbakilashtirilgan iqtisodiy faoliyat – bu iqtisodiyot davlat sektoriga xos bo'lib, davlatni aldashga qaratiladi. Buning eng yaqqol namunasi davlat sektoridagi qo'shib yozishlar, qilinmagan ishlar uchun davlatdan haq olish va shu turdagi yashirin korxona va tadbirkorlik ishlaridir.

Yashirin iqtisodiyotni faqat salbiy taraflarini emas, aksincha uning jamiyatga keltiradigan ijobiy tomonlarini ham yaxshilab o'rganib chiqishimiz ustuvor vazifamizdir. Yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi shaxslarga quyidagi yo'llar bilan ularga imkon berib, o'z tadbirkorligini ochiq-oshkora amalga oshirishi mumkinligini ko'rib chiqamiz:

1. Yashirin iqtisodiyot bilan shug'ullanuvchi shaxslarga qanchadur muddat evaziga soliqlarni kamaytirish yoki soliqlardan ozod etish orqali, keyinchalik muddat tugaganidan keyin esa ulardan soliq olish. Hozirgi kunda yashirin iqtisodiyot ham xalqaro darajaga ko'tarilgan. Shu tufayli ularda ham aylanma daromad ko'payganligini tahmin qilishimiz mumkin.

2. Agar ular ishlab chiqargan mahsulot davlatga va insonlarga naf keltiradigan bo'lsa, ularga imtiyozlar va kreditlar berish orqali o'z tadbirkorligini yanada rivojlantirishi uchun imtiyozli yordam berib qo'llab-quvvatlash.

3. Ortiqcha hujjatbozlikni kamaytirish orqali. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki yashirin iqtisodiyotni qisqartirish imkonsiz emas. Buning uchun aniq va mukammal o'ylangan, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan natijaviy strategiya kerak.

Bunday strategiyaga erishishda albatta birinchi navbatda aholining iqtisodiy savodxonligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar aholiga yashirin iqtisodiyotning salbiy asoratlari doimiy ravishda tushuntirib borilsa, bu orqali yashirin iqtisodiyot ma'lum darajada yechim topishga erishilishi mumkin.

Investitsiyalarni jalb qilish va yashirin iqtisodiyot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tushunish uchun modellashtirish muhimdir. Quyida asosiy jihatlar va modellashtirish yondoshuvlari keltirilgan: Investitsiyalarning yashirin iqtisodiyotga ta'siri

- Ijobiy tomonlari: Investitsiyalar iqtisodiyotning rasmiy sektorini rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga imkon yaratadi.

- Salbiy tomonlari: Ayrim investitsiyalar maxsus soliq rejimlaridan qochish maqsadida yashirin iqtisodiyot ko'lamini kengaytirishi mumkin. Bundan tashqari, noto'g'ri nazorat investitsiyalarni yashirishga undaydi.

3. Modellash tirish usullari

- Makroiqtisodiy modellar: Umumiy iqtisodiy o'sish, investitsiyalar hajmi va yashirin iqtisodiyot o'lchovlari orasidagi o'zaro ta'sirlarni ko'rsatadi.

- Mikroiqtisodiy modellar: Tadbirkorlarning qarorlari, rasmiy va yashirin sektor o'rtasidagi ko'chish mexanizmlarini baholaydi.

- DSGE modellar (Dinamik stokastik umumiy muvozanat modellar): Investitsiyalar, soliq siyosati va yashirin iqtisodiyot o'zgarishlarini vaqt bo'yicha tahlil qiladi.

- Agentga asoslangan modellar: Iqtisodiy sub'ektlarning harakatlari va qarorlarini simulyatsiya qilib, yashirin iqtisodiyotga investitsiyalarning ta'sirini aniqlaydi.

Ushbu jarayonning asosiy faktori esa:

- Soliq tizimi samaradorligi
- Davlat nazorati va qonuniylilikni ta'minlash darajasi
- Iqtisodiy erkinlik va raqobat muhiti
- Moliyaviy bozorlarning rivojlanganligi

Xulosa.

Tadqiqotlar va o'rganishlar natijasida shuni tavsiya qila olmanki:

- Investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini oshirishda rasmiylashtirish va soliq yengilliklarini yo'lga qo'yish kerak;

- Soliq nazorati va javobgarlikni kuchaytirish orqali yashirin iqtisodiyot faoliyatini kamaytirish;

- Investitsiya faoliyatini rag'batlantiruvchi qonuniy mexanizmlarni rivojlantirish;

- Yashirin iqtisodiyot ko'lamini baholash uchun maxsus indikatorlar va monitoring tizimlarini joriy etish.

Yakunida, investitsiyalarni jalb qilinishining yashirin iqtisodiyot ko'lamiga ta'sirini modellash tirish integratsiyalashgan yondoshuvni talab qiladi. Bu jarayon iqtisodiy siyosatni yanada samarali va maqsadli olib borish imkonini beradi.

Yashirin iqtisodiyotning kengayishi va o'sishi davlat siyosatiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat soliq tizimi va davlat byudjetining shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikka tahdid solmoqda. O'zbekistondagi yashirin iqtisodiyotning o'sish sabablari ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'liq bo'lib, bu masalani hal qilish uchun samarali siyosat zarur. Davlat tomonidan yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun soliq tizimini

takomillashtirish, iqtisodiy shaffoflikni oshirish va byurokratik to'siqlarni kamaytirish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi: nazariya, metodologiya va amaliyoti. –Toshkent 2017 y. –328 bet.
2. Berdiqulova S.T. “YASHIRIN IQTISODIYOTNI JILOVLASHDA SOLIQ SIYOSATI MEXANIZMLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH” Часть-38_ Том-2_ Февраль-2025 <https://scientific-jl.com/luch/>
3. Burxonov U.A. Investment valuation in emerging markets: oportunities & specific factors// “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” nauchniy elektronniy jurnal. – 2013. – № 7. – S.1.
4. E.Sh.Shodmonov, D.Sh.Bababekova, B.O.Tursunov. Korxona iqtisodiyoti va innovatsiyalarni boshqarish. Darslik. – T.: 2019-yil
5. Qayimova, Z. (2023). THE PLACE OF INFRASTRUCTURE IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE REGION. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 27(27).